

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil 8 may dagi
89 - son buyrug'iga
Ilova

Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi

Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlarini o'tkazishda foydalaniladi.

Tanlanma kuzatuvning maqsadi – respublikada chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarning tovarlar sotishdan tushgan tushumi hajmlarini aniqlash hisoblanadi.

Tanlanma kuzatuv O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan har yili tasdiqlanadigan “Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risida so'rovnoma (4 savdo (YATT))”, “Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslar to'g'risida so'rovnoma (12 bozor)” va “Chorva mollari va parrandalarni sotuvchi jismoniy shaxslar to'g'risida so'rovnoma (12 bozor (chorva))” asosida o'tkaziladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Ushbu Tartibda jismoniy shaxs sifatida yuridik shaxs tashkil etmasdan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va ro'yxatdan o'tmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda chakana bozorlarda aholiga tovarlar savdosini amalga oshirayotgan fuqarolar nazarda tutiladi.

Yuridik shaxslar kuzatuv obyekti bo'lib hisoblanmaydi.

Ushbu Tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatiladi:

so'rovnoma – yagona tadqiqot g'oyasi bilan birlashtirilgan savollar to'plami;

koordinator – kuzatuvni tashkil etish, sifatini ta'minlash va kuzatuv sistematik holatini nazorat qiluvchi javobgar mutaxassis;

respondent – sotsiologik yoki boshqa so'rovnomada ishtirok etuvchi shaxs;

savdo obyekti – savdo hajmi, imorat o'lchami, mulkchilik shaklidan qat'i nazar tovar va xizmatlarni sotish uchun mo'ljallangan bino va inshootlar. Chakana savdo obyektlariga: bozor, gipermarket, supermarket, savdo majmuasi, savdo markazi, universam, univermag, minimarket, gastronom, ixtisoslashtirilgan do'konlar, palatkalar, lotoklar, avtodo'konlar, pavilyonlar, kiosklar, do'konlar kiradi;

bozor – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda va belgilangan qoidalar bo'yicha savdo faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, belgilangan tartibda ana shunday maqom olgan doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan mulkiy kompleks;

dehqon (oziq-ovqat) bozori – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tayinlangan, keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilyonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks;

chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori – tirik chorva, parranda va boshqa hayvonlar bilan savdo qiluvchi yuridik maqomga ega dehqon (oziq-ovqat) bozorining alohida bo'linmasi.

II bob. Kuzatuvni tashkil etish

3. Tanlanma kuzatuv tuman (shahar) statistika bo'limlari mutaxassislari (keyingi o'rinlarda-intervyuyer) tomonidan o'tkaziladi.

4. Har bir intervuyuyer quyidagilar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak:

- bozor, savdo markazi nomi, uning manzili, bozordagi savdo joylari, savdo obyektlari va savdo markazlari ro'yxati bilan;

- intervyuyer unga biriktirilgan va kuzatuv uchun tanlangan bozor va savdo komplekslari sonidan kelib chiqqan holda yetarli so'rovnomalar bilan ta'minlanishi;

- bozor, savdo kompleksi ma'muriyatiga kuzatuv o'tkazishda ko'maklashish iltimosi bilan hududiy statistika organi rahbari tomonidan tasdiqlangan murojaatnoma bilan;

- statistika xodimi/ intervyuyer guvohnomasi bilan.

5. Hududiy statistika boshqarmalari rahbarlari tomonidan 1-ilovaga muvofiq, kuzatuv o'tkazilishiga javobgar shaxslar tasdiqlanadi, bunda tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi boshlig'i koordinator hisoblanadi.

6. Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi hududiy bo'limlari tomonidan 2-ilovaga muvofiq, o'z faoliyatini doimiy ravishda amalga oshirayotgan va savdo uchun keng assortiment taklif etuvchi bozor, savdo komplekslari ro'yxati tuziladi. Ushbu ro'yxat Statistika agentligining Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasiga yuboriladi. Kuzatuv uchun tanlangan bozor va savdo komplekslarida 3, 4 va 5-ilovalarda keltirilgan tovarlar savdo joylari mos ravishda tanlanadi.

Shunda dehqon bozorlari va chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorlarida kuzatuv joylari bir intervyuyerga o'rtacha 50 savdo joyi yuklamasi hisobida tanlanadi. Kuzatuv hajmi hamma tovarlar uchun bir xil yoki ularning mintaqaviy kelib chiqishiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin.

Agar bozorlardagi savdo uchun ajratilgan savdo maydonchalari joyi 50 dan kam bo'lsa, unda kuzatuvda jismoniy shaxslar uchun ajratilgan barcha mavjud savdo maydonchalari qamrab olinadi.

7. Savdo maydonchalarining yopilishi yoki tovarlar assortimenti o'zgarishi holati yuzaga kelganda, kuzatuv uchun tanlangan bozor va savdo komplekslaridagi savdo maydonchalari ro'yxatiga har yilning 1-fevraligacha aniqlik kiritilishi kerak.

8. Savdo obyektlarini tanlash hududiy statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda ularga tanlovda muayyan erkinlik beriladi, biroq ular quyida keltirilgan mezonlarga amal qilgan holda obyektlar ro'yxatini Statistika agentligi bilan kelishib oladilar.

9. Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar) kuzatuvini savdo obyektlarida (kiyim-kechak, aralash va oziq-ovqat bozorlari hamda do'konlarida, gipermarket, supermarket, minimarketlarda va h.k.), shuningdek, ko'chma savdo (palatka, kiosk va h.k.) joylarida ham amalga oshiriladi.

10. Zarur hollarda kuzatuv uchun tanlangan bozor va savdo komplekslaridagi yopilgan savdo maydonchalarini yangi ochilgan savdo maydonchalariga almashtirish,

shuningdek, sotuvchilar so'rovnomada ishtirok etishga e'tiroz bildirgan hollarida so'rovnoma boshqasiga almashtiriladi.

11. Tanlab olingan do'konlar tarkibida albatta ham universal, ham ixtisoslashgan do'konlar, ya'ni xo'jalik, kitob, maishiy texnika va boshqa turdagi do'konlar bo'lishi zarur.

12. Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar) tanlanma kuzatuvini amalga oshirishda, kuzatuv obyekti ro'yxatiga kuzatilayotgan barcha savdo nuqtalari, ularning manzili va sotilayotgan tovarlar guruhi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Masalan, "Yunusobod bozori", Ahmad Donish ko'chasi, savdo shoxobchalari:

- a) 1-savdo qatori, 10-joy – oziq-ovqat mahsulotlari;
- b) 2-savdo qatori, 11-joy – nooziq-ovqat mahsulotlar (kiyim-kechak);
- v) 3-savdo qatori, 12-joy – nooziq-ovqat mahsulotlar (maishiy texnika).

13. Savdo obyektlari almashganda yoki yangi savdo obyektlari kuzatuvga kiritilganda mazkur ro'yxat yangilanadi.

Savdo obyektlari uzoq muddatga yopilgan yoki tugatilgan bo'lsa, bunday holatlarda ham ularni almashtirish zarur. Obyektlarni almashtirish uchun tovarlar assortimenti, tovarlarni sotish sharoitlari bo'yicha asosiy kuzatuvga kiritilgan obyektlar bilan bir xil bo'lgan savdo obyektlarini tanlash tavsiya etiladi.

14. Savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar)ning tanlanma kuzatuvini intervyuyerlar tomonidan har chorakda, ya'ni hisobot choragining oxirgi oyi (mart, iyun, sentabr, dekabr)ning ish kunlari va dam olish kunlarida o'tkaziladi. Shunda Ilova №3 da keltirilgan tovarlar ro'yxatiga muvofiq, savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan barcha jismoniy shaxslarning 10 % idan kam bo'lmagan qismi qamrab olinadi.

15. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini hamda chorva mollari va parrandalarni sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini har oyda o'tkaziladi.

16. Statistika agentligining Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi har chorak oxirgi oyining 10 sanasiga qadar koordinatorga joylarda kuzatuv o'tkazish uchun quyidagilarni aniqlaydi va yuboradi:

- jismoniy shaxslarning kuzatuvini o'tkazish sanasi va muddatini;

- 4 savdo (YATT) bo'yicha kuzatiladiganlarning sonini (Davlat organlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan yakka tartibda tadbirkorlar haqida olingan ma'lumotlarga ko'ra).

III bob. Kuzatuv o'tkazish

17. Agar kuzatuv joyi bozor va savdo kompleksi bo'lsa, intervyuyer bozor (savdo kompleksi) ma'muriyatidan savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar savdo maydonchalari to'g'risida aniqlik kiritadi. Boshqa kuzatuv o'tkaziladigan joylarda intervyuyer kuzatuv o'tkazishdan oldin sotuvchilar soni, qanday tovarlar sotish uchun mo'ljallanganligi va kuzatuv joyini o'rganishi lozim. Undan keyin intervyuyer so'rovnomada keltirilgan tovarlar guruhi bo'yicha savdo qilayotgan jismoniy shaxslar bilan so'rov o'tkazadi.

18. Intervyuyer so'rov o'tkazishdan oldin respondentlarga guvohnomasini ko'rsatishi shart. Bundan tashqari sotuvchiga undan olingan dastlabki statistik ma'lumotlar maxfiyligini va faqatgina statistik maqsadlarda foydalanilishini tushuntirishi lozim.

Sotuvchilardan olingan ma'lumotlar so'rovnomaga sotuvchilar javoblarning to'g'riligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmagan holda kiritiladi.

So'rov yakunida sotuvchiga hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirish va undan olingan ma'lumotlar rasmiy statistik ma'lumotlarni shakllantirishdan boshqa joylarda ishlatilmasligini yana bir bor ta'kidlab o'tishi kerak.

19. So'rovnoma anonim hisoblanadi va unda respondent shaxsiy ma'lumotlari kiritilmaydi. So'rovnoma intervyuyer tomonidan respondent javoblari asosida to'ldiriladi.

20. Jismoniy shaxsning so'rovnomada ishtirok etishdan bosh tortish holati yuzaga kelsa, intervyuyer keyingi respondentga o'tadi, chunki olingan ma'lumotlarning shaffofligi hamda ishonchliligi javoblarning samimiyligi va aniqligiga bog'liq.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlar soni kuzatuv obyektida belgilanganlar sonidan kam bo'lmashligi kerak.

21. So'rovnoma o'tkazish vaqtida, quyidagilarga ahamiyat berish lozim: bir xil tovarlarga sotuvchilarning javoblarini taqqoslash, agar katta farq kuzatilsa, aniqlik kiritish uchun qo'shimcha savollar berishga.

IV bob. Intervyuyerlar ishining sifat nazorati

22. Tanlanma kuzatuvni tashkil etish bilan shug'ullanadigan hududiy statistika organlari intervyuyerlarning ishlash sifatini nazorat qilish uchun ularga birlashtirilgan bozor va savdo komplekslarini yil davomida majburiy tashriflar bilan kuzatishlari shart.

23. Intervyuyerlarning sifat nazorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- intervyuyer va sotuvchining savol-javob jarayonini nazorat qilish;
- tovarlar chakana savdosi hajmi bo'yicha sotuvchilar bilan nazorat savol-javobi o'tkazish.

Birlamchi statistik ma'lumotlar va sotuvchining tovarlar chakana savdosi hajmi bo'yicha nazorat savol-javoblari mos kelmasa, kuzatuvni tashkil etish bilan shug'ullanadigan hududiy statistika organlari xodimlari so'rovnoma o'zgartirishlarni kiritishi va dasturiy ta'minotga tuzatish kiritishi shart.

V bob. Kuzatuv so'rovnomasini yig'ish va qayta ishlash

24. Kuzatuv so'rovnomasida o'zicha o'zgartirishlar kiritish, to'g'rilash suyuqligi yordamida tuzatishlar qilish, shuningdek, qalam bilan to'ldirish taqiqlanadi.

25. Kuzatuvda ishtirok etayotgan har bir javobgar intervyuyer to'ldirilgan so'rovnomalarni hududiy Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limlariga taqdim etadi.

26. Koordinator qabul qilingan so'rovnomalarni to'ldirish talablariga muvofiqligini tekshiradi va Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 2014-yil 2-iyunda tasdiqlangan 37-sonli reglament asosida intervyuyer ishini baholaydi. Tekshiruvdan keyin so'rovnomalar dasturiy ta'minotga kiritiladi.

27. Chiqadigan jadvallarni koordinatorning shaxsan o'zi tahlil qiladi va boshqarma boshlig'i bilan kelishadi. Yig'ma jadvallar tahlilida bitta jismoniy shaxsning bir oylik tovar aylanmasiga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, bitta jismoniy shaxs bir oylik tovar aylanmasi hajmi ahamiyati jihatidan mintaqalar o'rtasida taqqoslanishi kerak.

28. Ishlar yakunlangach, ma'lumotlar bazasi, tumanlar (shaharlar) kesimidagi tahliliy jadvallar ko'rinishidagi yig'ma natijalar va intervyuyer ishining bahosi Statistika agentligiga elektron tarzda Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqarish dasturida tasdiqlangan sanadan kechiktirmay yuboriladi.

Eslatma: Ushbu yo'riqnomada keltirilgan atamalar faqat statistik kuzatuvlarini bozor, savdo markazlarida yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning chakana savdo hajmini kuzatuvini tashkil etish va o'tkazishda statistika organlari tomonidan foydalaniladi.

VI bob. Yakuniy qoidalar

29. Ushbu Tartib statistika organlarida statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan.

30. Mazkur Tartibni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi
jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlarini
tashkil etish va o'tkazish tartibiga
1-ILOVA

**Savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvida
ishtirok etadigan mutaxassislarning
RO'YXATI**

Hudud nomi	Intervyuyerning F.I.O.	Lavozimi	Koordinatorning F.I.O.

Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi
jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlarini
tashkil etish va o'tkazish tartibiga
2-ILOVA

**Kuzatuv o'tkaziladigan bozor, savdo majmuasi va boshqa joylarning
RO'YXATI**

T/r	STIR	Obyekt nomi	Manzili	Jami savdo nuqtalarining soni	Ulardan savdo qiluvchi jismoniy shaxslar

Mahsulotlar ro'yxati (guruhlar)
4 savdo (YATT)

Satr kodi Kod stroki	Mahsulotlar nomi Наименование товаров
A	B
I. Oziq-ovqat mahsulotlari I. Продовольственные товары	
47.21.01	Tarvuz va qovun (yangi) Арбуз и дыня (свежие)
47.21.02	Uzum (yangi) Виноград (свежий)
47.21.031	Olma Яблоко
47.21.032	Boshqa mevalar (yangi) Другие фрукты (свежие)
47.21.04	Kartoshka (ishlov berilmagan) Картофель (необработанный)
47.21.05	Qovoq (yangi) Тыква (свежие)
47.21.061	Pomidor Помидор
47.21.062	Sabzi Морковь
47.21.063	No'shpiyoz Лук репчатый
47.21.06	Boshqa sabzavotlar (yangi) Прочие овощи (свежие)
47.21.07	Qayta ishlangan sabzavotlar Овощи переработанные
47.21.08	Qayta ishlangan mevalar Фрукты переработанные
47.22.01	Go'sht, parranda go'shtini qo'shgan holda Мясо, включая мясо птицы
47.22.02	Go'sht konsyervalari Мясные консервы
47.22.03	Kolbasa mahsulotlari va dudlamalar Колбасные изделия и копчености
47.22.09	Boshqa go'sht mahsulotlari Прочие продукты из мяса
47.23.01	Tirik va muzlatilgan baliq Рыба свежая и охлажденная
47.23.02	Baliq konservalari Рыбные консервы
47.23.09	Boshqa baliq va dengiz mahsulotlari Прочая рыба морепродукты
47.24.01	Non va non mahsulotlari Хлеб и хлебобулочные изделия
47.24.02	Undan tayyorlangan qandolat mahsulotlari Мучные кондитерские изделия
47.24.03	Shakarli qandolat mahsulotlari Сахаристые кондитерские изделия

Satr kodi Kod stroki	Mahsulotlar nomi Наименование товаров
A	B
47.25.22	Mineral suv Минеральная вода
47.25.23	Meva va sabzavot soklari Фруктовые и овощные соки
47.25.29	Boshqa spirtsiz ichimliklar Прочие безалкогольные напитки
47.29.011	Quruq sut Сухое молоко
47.29.012	Pishloq Сыр
47.29.013	Sariyog' Масло сливочное
47.29.014	Muzqaymoq Мороженное
47.29.019	Boshqa toifaga kiritilmagan sut va boshqa sut mahsulotlari Молоко и прочие молочные продукты, не включенные в другие категории
47.29.022	Qizdirilgan oziq-ovqat yog'i va boshqa oziqabop hayvon yog'lari Жир пищевой топленый и прочие животные пищевые жиры
47.29.023	Margarin mahsuloti Маргариновая продукция
47.29.030	Tuxum Яйца
47.29.041	Un Мука
47.29.042	Makaron mahsulotlari Макаронные изделия
47.29.050	Shakar Сахар
47.29.061	Qahva Кофе
47.29.062	Choy Чай
47.29.063	Kakao Какао
47.29.064	Ziravorlar Пряности
47.29.071	Guruch Рис
47.29.072	Boshqa yormalar (guruchdan tashqari) Прочие крупы (кроме риса)
47.29.091	Tuz Сол
47.29.092	Bolalar ovqatlari Детское питание
47.29.099	Boshqa toifaga kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari Продукты питания прочие, не включенные в другие категории
II. Nooziq-ovqat mahsulotlar II. Непродоволственные товары	
45.32.00	Avtomobil detallari, uzellari va jihozlari Автомобильные детали, узлы и принадлежности
45.40.22	Mototsikllar va mopedlarning detallari, uzellari va jihozlari Детали, узлы и принадлежности мотоциклов и мопедов
47.41.01	Kompyuterlar Компьютеры
47.41.02	Kompyuter alohida sirtqi uskunalari Периферийное компьютерное оборудование

Satr kodi Kod stroki	Mahsulotlar nomi Наименование товаров
A	B
47.42.01	Uyali va boshqa simsiz aloqa tarmog'i uchun telefonlar Телефоны для сотовых и прочих беспроводных сетей связи
47.42.09	Boshqa telekommunikatsion uskunalar va ularning qismlari Телекоммуникационное оборудование прочее и его части
47.43.01	Televizorlar Телевизоры
47.43.09	Boshqa radio, audio va videoapparatura Радио, аудио и видеоаппаратура прочая
47.51.01	Yigirilgan ip Пряжа
47.51.02	Gazlamalar Ткани
47.51.03	Attorlik mollari Галантерейные товары
47.51.09	Dasturxon va choyshab, pardalar va boshqa to'qimachilik mahsulotlari Столовое и постельное беле, занавески и прочие текстильные изделия
47.52.01	Sanitariya texnik uskunalar Санитарно-техническое оборудование
47.53.10	Gilamlar va gilam mahsulotlari Ковры и ковровые изделия
47.54.01	Maishiy kir yuvish mashinalari Стиральные машины бытовые
47.54.02	Elektr chang yutgichlar Электропылесосы
47.54.03	Elektr dazmollar Электроутюги
47.54.04	Konditsionerlar Кондиционеры
47.54.05	Sovutkichlar va muzlatgichlar Холодильники и морозильники
47.54.09	Boshqa maishiy elektr tovarlari Прочие электробытовые товары
47.59.10	Maishiy mebel Бытовая мебель
47.59.91	Yoritish uskunolari Осветительное оборудование
47.59.92	Maishiy anjomlar, oshxona anjomlari, idishlar, shisha, chinni va sopol buyumlar Бытовая утвар, столовые принадлежности, посуда, стеклянные, фарфоровые и керамические изделия
47.59.93	Yog'och, po'kak va to'qima buyumlar Изделия из дерева, пробки и плетеные изделия
47.59.94	Maishiy noelektr uskunalar Бытовые неэлектрические приборы
47.59.95	Musiqasoboblari Музыкальные инструменты
47.59.99	Boshqa maishiy tovarlar va uskunalar Прочие бытовые товары и оборудование
47.61.00	Kitoblar Книги
47.62.01	Gazetalar va jurnallar Газеты и журналы
47.62.02	Kanselyariya buyumlari Канцелярские принадлежности
47.64.01	Velosipedlar Велосипеды

Satr kodi Kod stroki	Mahsulotlar nomi Наименование товаров
A	B
47.64.09	Sport, baliq ovlash va turizm uchun boshqa tovarlar Прочие товары для спорта, рыбалки и туризма
47.65.00	O'yinlar va o'yinchoqlar Игры и игрушки
47.71.11	Paupoq buyumlari Чулочно-носочные изделия
47.71.12	Boshqa trikotaj buyumlari Прочие трикотажные изделия
47.71.21	Bosh kiyimlar Головные уборы
47.71.22	Kiyimlar uchun aksessuarlar Аксессуары для одежды
47.71.29	Boshqa toifaga kiritilmagan kiyimlar Одежда прочая, не включенная в другие категории
47.72.10	Poyafzal Обувь
47.72.20	Charm buyumlar (kiyimlarsiz va poyafzalsiz) Изделия из кожи (без одежды и обуви)
47.75.01	Atir sovun Мыло туалетное
47.75.09	Boshqa pardoz tovarlari va gigiyena predmetlari Прочая парфюмерно-косметическая продукция и туалетные принадлежности
47.76.01	Gullar, o'simliklar, urug'lar va o'g'itlar Светы, растения, семена и удобрения
47.76.02	Uy hayvonlari va ular uchun ozuqalar Домашние животные (питомцы) и корма для них
47.77.01	Soatlar Часы
47.78.01	Fotografiya, optik va aniq asboblari Фотопринадлежности, оптические и точные приборы
47.78.02	Yodgorliklar, qo'lda yasalgan mayda buyumlar va diniy tovarlar Сувениры, поделки и религиозные товары
47.78.04	Tirik qishloq xo'jaligi hayvonlari va ular uchun ozuqalar Живые сельскохозяйственные животные и корма для них
47.78.05	Tozalovchi va boshqa maishiy kimyo vositalari Чистящие и прочие средства бытовой химии
47.78.06	Xo'jalik sovuni Мыло хозяйственное
47.78.07	Qog'oz va karton Бумага и картон
47.79.00	Ilgari iste'molda bo'lgan tovarlar Товары бывшие в употреблении

Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi
jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlarini
tashkil etish va o'tkazish tartibiga
4-ILOVA

Mahsulotlar ro'yxati (guruhlar)

12 bozor

Satr kodi Kod stroki	Mahsulotlar nomi Наименование товаров
A	B
4729071	Guruch Рис
4729072	No'xat Горох
472104	Kartoshka Картофель
472106	Pomidor Помидоры
472111	Sabzi Морков
472110	No'shpiyoz Лук репчатый
472105	Qovoq Тыква
472112	Tuzlangan karam Капуста квашеная
4729064	Ziravorlar Пряности
472101	Tarvuz va qovun (yangi) Арбузы и дыни (свежие)
472109	Olma Яблоки
472103	Nok Груши
472102	Uzum Виноград
472108	Turshak (bargak) Сушёный урюк (курага)
472201	Parranda go'shti Мясо птицы
4729019	Qatiq Молоко кислое
4729012	Pishloq, brinza Сыр, брынза
4729013	Sariyog' (uy xo'jalikniki) Масло сливочное (домашнее)
4729030	Tuxum Яйца
472401	Tandir non Лепешки
472402	Tortlar, pirojnilar, piroglar (xonadon pishiriqlari) Торты, пирожные, пироги (домашняя выпечка)
472403	Milliy shirinliklar Национальные сладости
477601	Gul ko'chatlari Светочная рассада
477804	Har xil pichan Сено

Mahsulotlar ro'yxati (guruhlar)
12 bozor (chorva)

Satr kodi Kod stroki	Nomi Наименование
A	B
201	2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar Крупный рогатый скот старше 2 лет
202	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar Молодняк до 1 года
203	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar Молодняк от 1 года до 2 лет
204	Qo'y Овцы
205	Echki Козы
206	Cho'chqalar (4 oydan katta) Свини (старше 4 месяцев)
208	3 yoshdan katta bo'lgan otlar Лошади старше 3 лет
209	Toy-otlar (3 yoshgacha) Лошади – молодняк (до 3 лет)
	Parranda: Птица:
210	tovuq куры
211	kurka, o'rdak, g'oz индюки, утки, гуси